

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



№12 – SON

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621

2025-YIL, DEKABR



OPEN  ACCESS



JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

"Tadbirkor va ishbilarmon" MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU, "Marketing" kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NamDTU, "Marketing" kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU "Marketing" kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrziyevich, i.f.d., prof., TDIU, Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulnaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU, "Marketing" kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU, Departament boshlig'i;

Musheva Shoirazimovna, i.f.n., SamSI, "Marketing" kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU, "Innovatsion menejment" kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU, "Axborot texnologiyalari" kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., NamDTU, "Menejment" kafedrasini mudiri, dotsenti;

Fayzullayev Jaylonbek Sultonovich, DSc., TDIU, "Yashil iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori;

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori;

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU, Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor;

Abduvaxidov Abdumalik Maxkamovich, i.f.d., TDIU, "Turizm va servis" kafedrasini professori;

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU, "Biznes boshqaruvi va logistika" kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekani, professor;

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU, "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU, Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU, Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Bo'laev Umidjon Talant o'g'li, i.f.f.d., PhD., Toshkent arxitektura qurilish instituti "Iqtisodiyot va bo'chmas mulkni boshqarish" kafedrasini dotsenti;

Bayxonov Bahodirjon Tursunbayevich, i.f.d., DSc, NamDTU, "Menejment" kafedrasini dotsenti;

Maxmudov Toxirjon Olimjonovich, PhD., NamDTU, "Marketing" kafedrasini dotsenti;

Pardayev Sherzod Xolmurodovich, i.f.f.d., PhD., TDIU, "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasini dotsenti;

Beknazarov Behzod Baxtiyor o'g'li, PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes" kafedrasini dotsent v.b.

Rajabova Moxichexra Abduxolikovna, PhD., Buxoro davlat universiteti marketing va menejment kafedrasini o'qituvchisi.

Ikromov Axmadjon Shavkat o'g'li, PhD., Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Ekonometrika va iqtisodiy modellashirish kafedrasini katta o'qituvchisi

Elektron nashr 655 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 25-dekabrda ruxsat etildi

MUNDARIJA

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA “YASHIRIN” HAMDA “XUFYONA” IQTISODIYOTNI KAMAYTIRISH ZARURATINING EMPERIK TAHLILI	7
Nazarova Ra’no Rustamovna, Najmiddinov Yahyo Fazliddin o’g’li	
O’ZBEKISTONDA TIKUV KIYIMLARI BOZORINI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	23
Soliyev Axmadjon, Maxkamov Iqboljon	
IQTISODIY FAOLLIKNI BAHOLASHDA ILG’OR YONDASHUVLAR HAMDA O’ZBEKISTONDA BIZNES FAOLLIGI INDEKSINI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	32
Jumayev Olimjon Sadulloevich, To’ymatov Muzaffarjon Yoqubjon o’g’li	
FIRIBGARLIK HOLATLARINI AUDITORLIK TEKSHIRUVLARI ORQALI ANIQLASHNING NAZARIY ASOSLARI	40
Boltayev Abror Sayitmuradovich	
SANOAT TARMOG’INI RIVOJLANISHINING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	47
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
PAXTA-TO’QIMACHILIK KLASSTERLARI FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISHGA ZAMONAVIY USLUBIY YONDASHUVLAR	56
Yusupova Feruza Yo’ldosheva	
IQTISODIY ISLOHATLARNING MILLIY MODEL VA YANGI O’ZBEKISTON STRATEGIYASI ...	62
Srajdinova Nodira Shavkatovna	
TEMIRYO’L TRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O’RNI.....	69
Eshboyev Ulug’bek Farxodovich	
PAXTA-TO’QIMACHILIK KLASSTERLARI FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI	76
Yusupova Feruza Yo’ldosheva	
O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VAKOLATLI IQTISODIY OPERATORLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH	81
Ismatullayeva Shoiri Nurlibekovna	
SANOAT KORXONALARI DEMOGRAFIYASINING IQTISODIY SAMARADORLIKGA TA’SIRINING EKONOMETRIK MODELLARI	92
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
O’ZBEKISTONDA LIZING XIZMATLARI KO’RSATISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	100
Xolov Bahodir O’ktamovich	
O’ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI.....	107
Qo’ziboyev Umarbek Ulug’bekovich	
OLIY TA’LIM RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGNING O’RNI.....	114
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ ГОТОВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА К ПРИЁМУ ПОСЕТИТЕЛЕЙ	121
Голышева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
MINTAQANING QURILISH TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH NAZARIYALARI.....	134
Aminov Sardorbek Sanjarbekovich	
MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHDA MAHSULOT BOZORI REGULYATORI TIZIMINI QO’LLASHNING AXAMIYATI.....	139
Rustamov Narzillo Istamovich	
МАРКЕТИНГОВЫЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДОВЕРИЯ К ТОВАРАМ НА РАЗВИВАЮЩИХСЯ РЫНКАХ.....	147
Абдурашидова Нигора Алишеровна, Кахрамонова Шахзода Дилмурод кизи, Болтаева Севинч Учкун кизи	
XIZMAT KO’RSATISH SOHASIDA STRATEGIK MENEJMENTNING ROLI VA AHAMIYATI	158
Alimova Dildora Damirovna, Aslonov Abdulla Xolmurodovich	

ICHKI AGRAR BOZOR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ORQALI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH YO‘LLARI	169
Aliev Yashnarjon Egamberdievich	
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNINGNI JORIY ETISH ORQALI TO‘QIMACHILIK SANOATINING RAQOBATBARDOSHLIGI VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH	174
Xakimova Zebinisa Muzaffarovna	
MINTAQADA MAXSUS IQTISODIY ZONALAR RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI	182
Abdullayeva Zulfiya Sadullayevna	
ВЛИЯНИЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГА И ИНСТРУМЕНТОВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЦИФРОВОЙ РЕКЛАМЫ.....	187
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Халикова Доно Джахангировна, Шавкатова Шахзода Шухратовна	
OILAVIY TADBIRKORLIKNING KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHGA TA’SIRINI BAHOLASH.....	202
Zaxidova Umida Farxodovna	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЕСТОРАННОГО БИЗНЕСА ЧЕРЕЗ ВНЕДРЕНИЕ И ПРОДВИЖЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ УСЛУГ	216
В.И. Назаров	
QURILISH TARMOG‘IDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA SOXANI RIVOJLANISH TENDENSIYALARIGA TA’SIRI	225
Arifdjanova Zilola Dilshodovna	
MINTAQADA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI OQIMLARINI TA’MINLASH YO‘LLARI.....	234
Zakirov Mir Timur Zakir o‘g‘li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УКРАИНЕ И УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ СОВРЕМЕННОСТИ.....	242
Вдовиченко Лариса Юрьевна, Азизова Сайёра Хамидуллаевна	
ВЛИЯНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ НА УСТОЙЧИВОСТЬ И ИННОВАЦИОННОСТЬ ТРАНСПОРТНЫХ КОМПАНИЙ УЗБЕКИСТАНА	253
Кадирова Шарофат Амоновна	
РОЛЬ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО МАРКЕТИНГА В УСИЛЕНИИ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОЙ ЛОЯЛЬНОСТИ.....	272
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Ж.Ж. Буриева, З.А. Юсупбекова	
ВЛИЯНИЕ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА НА ЭКОНОМИКУ СТРАНЫ	282
Абдухамидова Мафтуна Турсунали кизи	
TEMIR YO‘L TRANSPORTI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA KPI TIZIMINI QO‘LLASH.....	290
Mahmudova Dilafruz Hasanovna	
FACTORS AND METHODOLOGICAL APPROACHES INFLUENCING THE INNOVATION MANAGEMENT MECHANISM IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM.....	299
Karimov Muzaffar Abdumalik ugli	
CRM-УПРАВЛЕНИЕ В СЕТЕВЫХ СУПЕРМАРКЕТАХ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН: РОЛЬ КЛИЕНТСКИХ ДАННЫХ, ПРОГРАММ ЛОЯЛЬНОСТИ И ОМНИКАНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ	305
Юсупов Улугбек Шукруллаевич	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHDA CRM TIZIMLARINING O‘RNI	314
Xayitaliyev Nazirjon Yunusaliyevich	
CHAKANA SAVDO KORXONALARI TA’MINOT TIZIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	323
Abduxalilova Laylo To‘xtasinovna	
O‘ZBEKISTONDA UY-JOY FONDINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH	333
Raimov Otamurod Xolmurotovich	

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT DASTURLARINING MOLİYAVIY IJROSINI TA’MINLASHDA MARKETINGDAN FOYDALANISH: EMPIRIK TAHLIL VA KONSEPTUAL MODEL.....	340
Primova Nigora Ikrom qizi	
HUDUDIY KICHIK SANOAT ZONALARINING SAMARADORLIGINI INTEGRALLASHGAN INDIKATORLAR TIZIMI ASOSIDA BAHOLASH	346
Jalolova Sarvinoz Ulug‘bek qizi	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGIGA EKOLOGIK VA INNOVATSION OMILLAR TA’SIRI	356
Akramov Bo‘ribek Faxriddin o‘g‘li	
MINTAQADA SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASINING TUTGAN O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	367
Boltayev Mag‘rurbek Allayarovich	
OLIY TA’LIM MUASSASASIDA ZAMONAVIY MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS JIXATLARI.....	374
Maxmudov Faxriddin Umarovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNI BAHOLASH.....	381
Achilov Ilmurad Nematovich	
O‘ZBEKISTON OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI BARQAROR RIVOJLANISHINI TA’MINLASHDA STRATEGIK BOSHQARUV VA INSTITUTSIONAL YONDASHUVLAR	391
Tuychieva Begoyim Voxidjon qizi	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARI MARKETING FAOLIYATIDA MOTIVATSIYA YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISH	400
Jalilov Jamshid G‘anijonovich	
INTEGRATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN TOURISM AND HOSPITALITY: A COMPARATIVE ANALYSIS AND ROADMAP FOR UZBEKISTAN.....	407
Safaeva Sayyora Rixsibayevna	
THE EVOLUTION AND METHODOLOGICAL INTEGRATION OF THE CONCEPT OF SUSTAINABLE USE	417
Kilichov Mukhriddin	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI STRATEGIK BOSHQARISHNING MAZMUNI, ASOSIY PRINSIPLARI VA FUNKSIONAL VAZIFALARI.....	433
Shakirova Madinaxon Gafurdjanovna	
BUXORO VILOYATI TURIZM XIZMATLARI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	442
Jalolov Otabek Oybek o‘g‘li	
OLIY TA’LIMDAGI BAHOLASH TIZIMI BO‘YICHA ISHONCH DARAJASINI ANIQLASH VA ISHONCH INDIKATORLARINI HISOBLASH METODLARI	451
Hakimov Hakimjon Abdullo o‘g‘li, Hakimova Gulnora Abdullo qizi	
TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA VIRTUAL TA’LIM PLATFORMALARINING ROLI	459
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY AXBOROTLARNI O‘RNI.....	467
Samatov Azizbek Abdulaxatovich	
MOYLI EGINLAR YETISHTIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.....	473
Valiyeva Aziza Anvar qizi	
THE ECONOMIC AND ENVIRONMENTAL EFFICIENCY OF AGRIVOLTAIC SYSTEMS IN UZBEKISTAN’S AGRICULTURAL SECTOR	481
Amonov Sardor Zamon ugli	
AMORTIZATSIYA QILINADIGAN AKTIVLAR VA ULARNI HISOBGA OLIHNING OBYEKTIV ZARURATI.....	490
Aminboyev Jaloliddin Otabek o‘g‘li	

DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA MARKETING JARAYONLARINI YO'LGA QO'YILGANLIK HOLATI VA RIVOJLANISH VEKTORLARI.....	500
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	508
Salomova Sarvinoz Salimovna	
IJTIMOIIY-IQTISODIIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA CHAKANA SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI.....	515
Muxamedova Aziza Ravshanovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIIY-STATISTIK TAHLILIGA DOIR.....	523
Saburov Jumanazar Saliyevich	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РЕСУРСА (HR) В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	531
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Урозбоев Хайрулла Муродбой угли, Умаров Фаёзбек Суннатилла угли	
MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASH USULLARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..	542
Djumanov Saitmurod Alibekovich	
TADBIRKORLIKDA RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASHDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH VA MENEJMENTNING O'ZARO TA'SIRI	549
Sultonboyeva Munira Baxodirovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA TOVAR ZAXIRALARINI BOSHQARISH MASALALARI	558
Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
IQTISODIIYOTDA TARKIBIIY O'ZGARISHLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	566
Ochilov Akram Odilovich, Qo'ziboyeva Nargiza Hamro qizi	
JOZIBADOR TURISTIK MAHSULOTLARNI SHAKLLANTIRISH VA SIFATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	574
Mirzabayev Jamshid Irkinovich	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUVIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI.....	581
Gafurov Anvar Bazarbayevich	
ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В УПРАВЛЕНИИ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ	591
Тарават Абдул Салам	
INNOVATSION IQTISODIIYOT SHAROITIDA QAYTA SUG'URTALASH INSTITUTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI VA YO'NALISHLARI	603
Sherov Sanjar Radjabovich	
BANKLAR VA MARKETING SIYOSATI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	613
Boboxo'jayeva Fotima Kaxramonovna	
ВЛИЯНИЕ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА НА ЭКОНОМИКУ СТРАНЫ	619
Абдухамидова Мафтуна Турсунали кизи	
O'ZBEKISTONDA BIZNES VA TADBIRKORLIK: HOZIRGI HOLAT VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	626
Ravshanov Azizbek Ravshanovich	
OILAVIY TADBIRKORLIKNING KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA TA'SIRI: NAMANGAN VILOYATI BO'YICHA KO'P OMILLI EKONOMETRIK BAHOLASH	634
Ernazarova Nilufar Nozimjonovna	
MINTAQA SANOAT TUZILMASINING STRUKTURAVIY O'ZGARISHLARI VA IQTISODIIY O'SISH DINAMIKASI TAHLILI.....	644
G'aymatova Dilafro'z G'ofurjonovna	

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QAYTA SUG'URTALASH INSTITUTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI VA YO'NALISHLARI

Sherov Sanjar Radjabovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

PhD, dotsent

mustaqil izlanuvchisi

E-mail: sherovsr@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida qayta sug'urtalash institutlarini rivojlantirish strategiyalari va ustuvor yo'nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida qayta sug'urtalash mexanizmlarining sug'urta kompaniyalarida risklarni diversifikatsiya qilish, kapital samaradorligini oshirish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashdagi roli asoslab berildi. Shuningdek, umumiy va hayotni sug'urta qilish sohalarida qayta sug'urtalash hajmlarining dinamikasi baholanib, innovatsion yondashuvlarga bo'lgan ehtiyoj aniqlandi. Tadqiqotda raqamli transformatsiya, yangi risk turlarini qamrab olish, xalqaro hamkorlik va ESG tamoyillarini integratsiyalash qayta sug'urtalash institutlarining uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillar sifatida e'tirof etildi. Olingan natijalar milliy sug'urta bozorini barqaror rivojlantirish va xalqaro standartlarga moslashuv imkoniyatlarini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: qayta sug'urtalash, innovatsion iqtisodiyot, sug'urta kompaniyasi, risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlik, kapital samaradorligi, raqamli transformatsiya, ESG integratsiyasi, sug'urta portfeli, retrotseksiya.

Аннотация

В статье были научно проанализированы стратегии и приоритетные направления развития институтов перестрахования в условиях инновационной экономики. В ходе исследования была обоснована роль механизмов перестрахования в диверсификации рисков, повышении эффективности использования капитала и укреплении финансовой устойчивости страховых компаний. Также была оценена динамика объемов перестрахования в сферах общего и страхования жизни, что позволило выявить потребность во внедрении инновационных подходов. В исследовании цифровая трансформация, охват новых видов рисков, международное сотрудничество и интеграция принципов ESG были признаны ключевыми факторами, обеспечивающими долгосрочное развитие институтов перестрахования. Полученные результаты продемонстрировали возможности устойчивого развития национального страхового рынка и его адаптации к международным стандартам.

Ключевые слова: перестрахование, инновационная экономика, страховая компания, управление рисками, финансовая устойчивость, эффективность капитала, цифровая трансформация, интеграция ESG, страховой портфель, ретроцессия.

Abstract

The article scientifically analyzed the strategies and priority directions for the development of reinsurance institutions in the context of an innovative economy. During the study, the role of reinsurance mechanisms in risk diversification, improving capital efficiency, and strengthening the financial stability of insurance companies was substantiated. In addition, the dynamics of reinsurance volumes in general insurance and life insurance sectors were assessed, which revealed the need for innovative approaches. The study identified digital transformation, coverage of new types of risks, international cooperation, and the integration of ESG principles as key factors ensuring the long-term development of reinsurance institutions. The obtained results demonstrated the potential for sustainable development of the national insurance market and its alignment with international standards.

Keywords: reinsurance, innovative economy, insurance company, risk management, financial stability, capital efficiency, digital transformation, ESG integration, insurance portfolio, retrocession.

KIRISH

Sugʻurta tashkilotlarining barqaror faoliyat yuritishini taʼminlashda qayta sugʻurtalash mexanizmlaridan samarali foydalanish muhim strategik ahamiyatga ega. Qayta sugʻurtalash sugʻurta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, zararlar xavfini kamaytirish hamda sugʻurta portfelinig muvozanatini saqlashga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy sugʻurta bozorida risklarning murakkablashuvi va ularning hajmining ortib borishi sharoitida sugʻurta tashkilotlari oʻz zimmasiga olgan majburiyatlarni toʻliq va oʻz vaqtida bajarishi uchun qayta sugʻurtalash shakllaridan foydalanish talab etiladi. Bunda qayta sugʻurtalash shartnomalarining tuzilmasini shakllantirish, risklarni taqsimlash darajasi, qayta sugʻurtalash qiymati hamda moliyaviy samaradorlik koʻrsatkichlari tahlil qilinishi lozim.

Shuningdek, qayta sugʻurtalash sugʻurta kompaniyalarining toʻlovga qobiliyatini taʼminlash, kapitallashuv darajasini oshirish hamda favqulodda moliyaviy yoʻqotishlardan himoyalashida muhim rol oʻynaydi. Ushbu jarayonda xalqaro va milliy qayta sugʻurtalash bozorlarining ilgʻor tajribasi, statistik va aktuariy hisob-kitoblar, shuningdek risklarni boshqarishning zamonaviy usullaridan kompleks tarzda foydalanish sugʻurta tashkilotlari faoliyatining barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun qayta sugʻurtalash shartnomasining optimal tuzilmasini tanlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois har bir sugʻurta tashkiloti oʻz risk portfeli xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qayta sugʻurtalashning eng maqbul modelini individual tarzda ishlab chiqishi va uni amaliyotga joriy etishi zarur.

ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida qayta sugʻurtalash institutlari faoliyatini rivojlantirish masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, xorijiy ilmiy adabiyotlarda qayta sugʻurtalash mexanizmlarini

raqamlashtirish, risklarni modellashtirish va kapital barqarorligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

J. Dong va T. Finlay fikriga ko'ra, zamonaviy qayta sug'urtalash tizimlarini optimallashtirishda sun'iy intellekt (Artificial Intelligence) va mashina o'rganish (Machine Learning) algoritmlaridan foydalanish sug'urta kompaniyalarining risklarni boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [1]. Mualliflar qayta sug'urtalash shartnomalarini dinamik tarzda moslashtirish innovatsion iqtisodiyot sharoitida muhim strategik yo'nalish ekanligini ta'kidlaydilar.

Y.Guo, L.Han va S.Wanglarning tadqiqotlariga ko'ra, qayta sug'urtalash shartnomalarini ishlab chiqishda bozor ishtirokchilarining turli iqtisodiy qarashlari va riskka bo'lgan munosabatlarini hisobga olish optimal qayta sug'urtalash strategiyalarini shakllantirishga imkon beradi [2]. Mualliflar innovatsion yondashuv sifatida moslashuvchan va ko'p darajali qayta sug'urtalash modellarini taklif etadilar.

F. Cremerning ilmiy qarashlariga binoan, innovatsion iqtisodiyotda kiberxavflar kabi yangi risk turlarining paydo bo'lishi qayta sug'urtalash institutlaridan yangi moliyaviy instrumentlar va risk transfer mexanizmlarini joriy etishni talab qiladi [3]. Muallif qayta sug'urtalashni sug'urta bozorining barqarorligini ta'minlovchi himoya vositasi sifatida baholaydi.

T.Boonen, K.Tan va S.Zhuang fikriga ko'ra, bir nechta qayta sug'urtalovchilar bilan hamkorlik qilish sug'urta kompaniyalariga risklarni diversifikatsiya qilish va qayta sug'urtalash xarajatlarini optimallashtirish imkonini beradi [4]. Ularning tadqiqotlarida innovatsion iqtisodiyot sharoitida raqobat va hamkorlikning uyg'unlashuvi asosiy rivojlanish omili sifatida ko'rsatilgan.

G.Marangwanda tadqiqotlarida qayta sug'urtalash qarorlari kompaniyaning umumiy rivojlanish strategiyasi va ESG tamoyillari bilan uyg'unlashtirish innovatsion iqtisodiyot sharoitida uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashi qayd etiladi [5].

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida esa qayta sug'urtalash institutlarini rivojlantirishning milliy xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Jumladan, B. Kamilov fikriga ko'ra, O'zbekiston sug'urta bozorida qayta sug'urtalash tizimini rivojlantirishda xalqaro tajribani joriy etish, risklarni hududiy diversifikatsiya qilish va kapitallashuv darajasini oshirish ustuvor yo'nalish hisoblanadi [6].

Shuningdek, mahalliy tadqiqotchilar tomonidan qayta sug'urtalash institutlarining normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish, aktuariy hisob-kitoblarni joriy etish va raqamli texnologiyalardan foydalanish innovatsion iqtisodiyot sharoitida muhim rivojlanish omillari sifatida e'tirof etiladi [7].

S. Abirqulova ta'kidlashicha, qayta sug'urtalash sug'urta kompaniyalari uchun risklarni diversifikatsiya qilish va favqulodda moliyaviy yo'qotishlardan himoyalashning asosiy instrumenti hisoblanadi [8]. Muallif innovatsion iqtisodiyot sharoitida qayta sug'urtalash strategiyalarini kompaniyaning umumiy moliyaviy strategiyasi bilan uyg'unlashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Q. Nomozova fikriga ko'ra, O'zbekistonda barqaror qayta sug'urtalash modelini shakllantirish institutsional islohotlar, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan chambarchas bog'liqdir [9]. Muallif

milliy qayta sug'urtalash bozorini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar ustuvor yo'nalish bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

Z. Norov fikriga ko'ra, global qayta sug'urtalash bozoridagi tendensiyalarni hisobga olgan holda milliy sug'urta kompaniyalarining qayta sug'urtalash siyosatini modernizatsiya qilish zarur [10]. Muallif xalqaro standartlarga mos risk boshqaruvi va kapitallashuv mexanizmlarini joriy etish innovatsion iqtisodiyot sharoitida qayta sug'urtalash institutlari samaradorligini oshirishini qayd etadi.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada qayta sug'urtalash institutlari faoliyatini innovatsion iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy-uslubiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida deduktiv va induktiv metodlar asosida nazariy xulosalar shakllantirildi hamda ularning amaliy ahamiyati tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil orqali milliy va xalqaro qayta sug'urtalash bozorlaridagi rivojlanish tendensiyalari solishtirildi. Statistik usullar yordamida O'zbekiston sug'urta bozorida qayta sug'urtalash hajmi va ulushining dinamikasi baholandi. Shuningdek, tizimli tahlil asosida qayta sug'urtalash mexanizmlarining risklarni boshqarish, kapital samaradorligi va moliyaviy barqarorlikka ta'siri o'rganildi. Tadqiqotda ochiq rasmiy statistik ma'lumotlar, ilmiy manbalar hamda xalqaro tajriba natijalaridan foydalanildi, bu esa olingan xulosalarning ishonchliligini ta'minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qayta sug'urtalash - bu sug'urtalovchi tomonidan o'z zimmasiga olingan sug'urta risklarining bir qismini yoki to'liq hajmini shartnoma asosida boshqa sug'urtalovchiga topshirish jarayonidir. Ushbu mexanizm sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, to'lovga qobiliyatini saqlab qolish hamda yirik va kutilmagan zararlar ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi. Qayta sug'urtalashning asosiy vazifasi sug'urta risklarini kengroq moliyaviy makonda taqsimlash orqali sug'urta portfelining muvozanatini ta'minlashdan iborat. Shu bilan birga, qayta sug'urtalash sug'urta kompaniyalariga sug'urta majburiyatlari hajmini kengaytirish, yangi va yuqori riskli sug'urta turlarini joriy etish hamda bozor sharoitidagi o'zgarishlarga moslashish imkonini beradi. Shunday qilib, qayta sug'urtalash zamonaviy sug'urta tizimining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, sug'urta tashkilotlarining barqaror faoliyat yuritishi, moliyaviy xavfsizligi va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlovchi muhim iqtisodiy institut sifatida namoyon bo'ladi.

Muayyan sug'urta riskini o'z zimmasiga olgan hamda ushbu riskning bir qismini yoki belgilangan ulushini shartnoma asosida boshqa sug'urtalovchiga qayta sug'urtalash orqali topshiradigan sug'urtalovchi qayta sug'urtalovchi (cedent) deb ataladi. Cedent o'zining sug'urta portfeli tarkibidagi risk yuklamasini kamaytirish, yirik zararlar ehtimolini cheklash va moliyaviy barqarorligini saqlab qolish maqsadida qayta sug'urtalash mexanizmidan foydalanadi.

O'z navbatida, qayta sug'urtalash shartnomasi doirasida mazkur riskni to'liq yoki qisman qabul qiluvchi sug'urtalovchi qayta sug'urtalovchi (reinsurer) hisoblanadi. Reinsurer sug'urta bozorida risklarni qayta taqsimlash jarayonining muhim

ishtirokchisi bo‘lib, u o‘z zimmasiga olgan majburiyatlar evaziga qayta sug‘urtalash mukofotini oladi hamda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish majburiyatini oladi (1-rasm).

Sug‘urta riskini aniqlash	Sug‘urta tashkiloti (cedent) sug‘urta shartnomasi bo‘yicha risklarni o‘z zimmasiga oladi.
Qayta sug‘urtalashga tayyorlash	Cedent o‘z risk portfelini tahlil qiladi. Riskning qaysi qismi qayta sug‘urtalashga mos kelishini belgilaydi.
Qayta sug‘urtalash shartnomasini tuzish	Cedent va reinsurer o‘rtasida shartnoma tuziladi. Riskning ulushi, shartnomaviy majburiyatlar va to‘lov shartlari aniqlanadi.
Riskni topshirish	Cedent belgilangan ulushdagi riskni reinsurerga topshiradi. Reinsurer ushbu riskni qabul qiladi va shartnomaviy majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi.
Retrotseksiya (agar kerak bo‘lsa)	Reinsurer o‘z zimmasiga olgan riskning bir qismini boshqa reinsurerga topshiradi. Riskni topshirayotgan taraf retrotseksiya beruvchi (retrotseksiant), qabul qiluvchi taraf retrotsepsioner bo‘ladi.
Riskni boshqarish va monitoring	Cedent va reinsurer risklarni doimiy monitoring qiladi. Moliyaviy holat, da‘volar va kapital yetarliligi nazorat qilinadi.
Favqulodda holatlar va to‘lovlarni amalga oshirish	Sug‘urta hodisasi yuz berganda, reinsurer va retrotsepsioner shartnomaga muvofiq to‘lovlarni amalga oshiradi. Cedent sug‘urtalanuvchi oldidagi majburiyatlarni bajaradi.

1-rasm. Qayta sug‘urtalash mexanizmi¹

Qayta sug‘urtalash munosabatlari ko‘p bosqichli xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Xususan, qayta sug‘urtalovchi o‘z zimmasiga olgan riskning bir qismini uchinchi shaxsga qayta topshirgan hollarda ushbu jarayon retrotseksiya deb ataladi. Retrotseksiya orqali riskni topshirayotgan qayta sug‘urtalovchi retrotseksiya beruvchi (retrotseksiant), riskni qabul qiluvchi tomon esa retrotseksiya qabul qiluvchi (retrocessionaire) sifatida maydonga chiqadi.

Mazkur mexanizm risklarni yanada kengroq moliyaviy makonda taqsimlash, qayta sug‘urtalovchilar moliyaviy yuklamasini optimallashtirish hamda sug‘urta tizimining umumiy barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, qayta sug‘urtalash va retrotseksiya institutlari zamonaviy sug‘urta bozorida risklarni boshqarish, kapitallashuv darajasini oshirish va sug‘urta kompaniyalarining to‘lovga qobiliyatini mustahkamlashning muhim vositalari sifatida e‘tirof etiladi.

Mamlakatimizda qayta sug‘urtalash bilan bog‘liq operatsiyalar bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda va bunda asosan umumiy sug‘urta sohasi asosiy rol o‘ynaydi. Umumiy sug‘urta sohasida qayta sug‘urtalash mexanizmi sug‘urta kompaniyalarining yirik moliyaviy majburiyatlarini boshqarish, kapital samaradorligini oshirish va to‘lovga qobiliyatini mustahkamlash imkonini beradi. Bu jarayonning asosiy xususiyati shundaki, risklar nafaqat mahalliy sug‘urta bozorida, balki xalqaro qayta sug‘urtalash bozorlarida ham taqsimlanadi. Shu orqali sug‘urta

¹ Muallif ishlanmasi

kompaniyalari o'z portfelidagi konsentratsiyalashgan risklarni kamaytiradi va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi.

1-jadval.

O'zbekiston sug'urta bozorida qayta sug'urtalash hajmi va ulushi [11]

Ko'rsatkichlar	2022-yil		2023-yil		2024-yil	
	Sug'urta hajmi (mln. so'mda)	Yalpi sug'urta mukofotlariga nisbatan (foizda)	Sug'urta hajmi (mln. so'mda)	Yalpi sug'urta mukofotlariga nisbatan (foizda)	Sug'urta hajmi (mln. so'mda)	Yalpi sug'urta mukofotlariga nisbatan (foizda)
Umumiy sug'urta sohasi						
Qayta sug'urtalashga berilgan	755 117	16	1 522 557	20	2 382 597	25
Qayta sug'urtalashga qabul qilingan	940 087	20	1 324 269	17	1 398 669	15
Hayotni sug'urta qilish sohasi						
Qayta sug'urtalashga berilgan	131	0	131	0	15 687	5
Qayta sug'urtalashga qabul qilingan	468	0	904	0	-	0

Jadval O'zbekiston sug'urta bozorida 2022-2024-yillarda qayta sug'urtalash hajmi va uning yalpi sug'urta mukofotlariga nisbatan ulushini ko'rsatadi. Umumiy sug'urta sohasi bo'yicha qayta sug'urtalashga berilgan hajm 2022-yilda 755 117 mln. so'm bo'lib, 2024-yilda 2 382 597 mln. so'mga oshgan, foiz ulushi esa 16 foizdan 25 foizga yetgan. Shu bilan birga, qayta sug'urtalashga qabul qilingan hajm 2022-yildan 2024-yilgacha o'sish sur'ati sekinlashgan va foiz ulushi 20 foizdan 15 foizga tushgan.

Hayotni sug'urta qilish sohasi bo'yicha qayta sug'urtalash hajmlari 2022 va 2023-yillarda deyarli nolga teng bo'lib, 2024-yilda berilgan hajm sezilarli oshib, 15 687 mln. so'm va 5 foiz ulushni tashkil qilgan. Bu, hayotni sug'urta qilish bozorida qayta sug'urtalashning jadal rivojlanayotganini bildiradi.

Umuman olganda, umumiy sug'urta sohasi bo'yicha qayta sug'urtalash hajmi va ulushi ortib bormoqda, hayotni sug'urta qilish sohasida esa joriy yilda faqat boshlang'ich o'sish kuzatilmoqda, bu sug'urta kompaniyalarining risklarni boshqarish strategiyasidagi muhim tendensiya hisoblanadi.

2-jadval.

Chet el sug'urta tashkilotlarining qayta sug'urtalash majburiyatlari [11]

Ko'rsatkichlar	2022-yil		2023-yil		2024-yil	
	Sug'urta hajmi (mlrd. so'mda)	Yalpi sug'urta mukofotlariga nisbatan (foizda)	Sug'urta hajmi (mlrd. so'mda)	Yalpi sug'urta mukofotlariga nisbatan (foizda)	Sug'urta hajmi (mlrd. so'mda)	Yalpi sug'urta mukofotlariga nisbatan (foizda)
Umumiy sug'urta sohasi						
Qayta sug'urtalashga berilgan	631203,1	30	627646,9	27	863382,4	32
Qayta sug'urtalashga qabul qilingan	172734,6	8	170700,2	7	257959,5	10
Hayotni sug'urta qilish sohasi						
Qayta sug'urtalashga berilgan	194,1	15	475,00	0	1035,8	4
Qayta sug'urtalashga qabul qilingan	12424,3	965	3529,6	22	-	0

Jadval O'zbekiston sug'urta bozorida 2022-2024-yillarda qayta sug'urtalash hajmi va uning yalpi sug'urta mukofotlariga nisbatan ulushini ko'rsatadi. Umumiy sug'urta sohasi bo'yicha qayta sug'urtalashga berilgan hajm 2022-yilda 631 203,1 mlrd. so'm bo'lib, 2024-yilda 863 382,4 mlrd. so'mga oshgan, foiz ulushi esa 30 foizdan 32 foizga yetgan. Shu bilan birga, qayta sug'urtalashga qabul qilingan hajm 172 734,6 mlrd. so'mdan 257 959,5 mlrd. so'mga ko'tarilgan, foiz ulushi esa 8 foizdan 10 foizga oshgan, bu chet el sug'urta tashkilotlarining O'zbekiston bozoridagi majburiyatlari ortganini bildiradi.

Hayotni sug'urta qilish sohasida qayta sug'urtalash hajmlari kichik bo'lib, 2022-yilda berilgan hajm 194,1 mlrd. so'm bo'lsa, 2024-yilda 1 035,8 mlrd. so'mga yetgan. Qayta sug'urtalashga qabul qilingan hajmlar esa 2022-yilda 12 424,3 mlrd. so'mga teng bo'lib, foiz ko'rsatkichlari (965 foiz) juda yuqori bo'lgan, keyingi yillarda esa sezilarli kamaygan va 2024-yilda 0 foizga tushgan.

Umuman olganda, umumiy sug'urta sohasi bo'yicha qayta sug'urtalash hajmi ortib bormoqda, bu sug'urta kompaniyalarining risklarni boshqarish va chet el sug'urta tashkilotlari bilan hamkorligini kuchaytirayotganini ko'rsatadi. Hayotni sug'urta qilish bozorida esa qayta sug'urtalash hajmlari nisbatan kichik va o'zgaruvchan bo'lib, chet el majburiyatlari sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Qayta sug'urtalash institutlarini innovatsion iqtisodiyot sharoitida rivojlantirishda qo'llaniladigan asosiy strategiyalarni ilmiy-uslubiy tarzda tahlil qiladigan bo'lsak, ular bir necha asosiy yo'nalishlarga bo'linadi. Har bir strategiya zamonaviy iqtisodiy sharoitlar, raqamli transformatsiya va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash talablarini inobatga oladi.

1. Risklarni diversifikatsiya qilish va optimizatsiya strategiyasi

Sug'urta kompaniyalari o'z risk portfellarini geografik, sektor va turli risk turlariga bo'lish orqali moliyaviy xavflarni kamaytiradi.

Qayta sug'urtalash shartnomalari turli risklarni boshqarish vositasi sifatida ishlatiladi.

2. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish strategiyasi

Sun'iy intellekt, mashinaviy o'rganish va katta ma'lumotlar (Big Data) qayta sug'urtalash qarorlarini avtomatlashtirishga yordam beradi.

Bu strategiya risklarni prognoz qilish, da'volar monitoringi va shartnomalarni dinamik boshqarish imkonini beradi.

3. Yangi risk turlarini qamrab olish strategiyasi

Kiberxavflar, iqlim o'zgarishi, pandemiya kabi yangi va murakkab risklarni sug'urta qilish va qayta sug'urtalash.

Bu yo'nalish sug'urta bozorida innovatsion mahsulotlar yaratish va moliyaviy xavfsizlikni oshirishga xizmat qiladi.

4. Raqamli transformatsiya va jarayonlarni avtomatlashtirish

Sug'urta va qayta sug'urtalash jarayonlarini raqamli tizimga o'tkazish, elektron shartnomalar va smart-kontraktlar joriy etish.

Jarayonlarni avtomatlashtirish operatsion xarajatlarni kamaytiradi va shartnoma shaffofligini oshiradi.

5. Global hamkorlik va ILS (Insurance-Linked Securities) integratsiyasi

Xorijiy va mahalliy bozorlarda strategik sherikliklarni rivojlantirish, ILS va boshqa moliyaviy instrumentlardan foydalanish.

Bozorning likvidligini oshirish va sug'urta kompaniyalarining kapitallashuv darajasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

6. Barqaror rivojlanish va ESG integratsiyasi

Qayta sug'urtalash strategiyalarini korporativ strategiya va ESG (Atrof-muhit, Ijtimoiy va Boshqaruv) tamoyillari bilan uyg'unlashtirish.

Bu uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga xizmat qiladi.

7. Milliy bozorda institutsional va normativ-strategik rivojlanish

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, kapitallashuv va risk monitoring tizimlarini joriy etish.

Mahalliy bozorni xalqaro standartlarga moslashtirish va innovatsion mahsulotlar yaratish.

Mamlakatimizda umumiy sug'urta sohasida qayta sug'urtalash jarayonida yangi strategiyalar joriy etilmoqda. Ular orasida risklarni diversifikatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni qo'llash, da'volarni prognoz qilish va boshqarish, shuningdek, innovatsion moliyaviy instrumentlar – ILS (Insurance-Linked Securities) va xalqaro sheriklik mexanizmlari keng qo'llanilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, sug'urta bozorining samaradorligini oshirish, risklarni strategik boshqarish va investorlar ishonchini mustahkamlash imkonini beradi.

Kelgusida umumiy sug'urta sohasi qayta sug'urtalash mexanizmlarini yanada kengaytirish orqali milliy sug'urta bozorini mustahkamlash, innovatsion mahsulotlarni joriy etish hamda xalqaro standartlarga moslashtirish yo'lida muhim baza yaratadi. Shu bilan birga, hayotni sug'urta qilish sohasidagi qayta sug'urtalash jarayonlari ham asta-sekin rivojlanib, sug'urta kompaniyalarining barqarorligini oshirish va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda o'z rolini kuchaytirmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qayta sug'urtalash institutlari innovatsion iqtisodiyot sharoitida sug'urta kompaniyalarining risklarni samarali boshqarishi, kapitaldan foydalanish samaradorligini oshirishi hamda moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda yetakchi va strategik ahamiyatga ega institut sifatida namoyon bo'lmoqda. So'nggi yillarda umumiy sug'urta sohasi bo'yicha qayta sug'urtalash hajmlari va uning yalpi sug'urta mukofotlaridagi ulushining izchil ortib borishi sug'urta kompaniyalarida risklarni diversifikatsiya qilish, yirik moliyaviy majburiyatlarni muvozanatli boshqarish va barqaror rivojlanishga qaratilgan strategik yondashuvlar shakllanayotganini tasdiqlaydi. Hayotni sug'urta qilish bozorida qayta sug'urtalash hajmlarining bosqichma-bosqich oshib borishi esa ushbu segmentda innovatsion mexanizmlarni joriy etish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida qayta sug'urtalash institutlarini rivojlantirish strategiyalari risklarni diversifikatsiya va optimallashtirish, kiberxavflar, iqlim o'zgarishi va pandemiya kabi yangi risk turlarini qamrab olish, raqamli transformatsiya

va jarayonlarni avtomatlashtirish, shuningdek innovatsion moliyaviy instrumentlar — ILS (Insurance-Linked Securities)dan foydalanish hamda global hamkorlikni kengaytirish kabi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu strategiyalar sug‘urta bozorining barqarorligi va raqobatbardoshligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

ESG (atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv) tamoyillarini qayta sug‘urtalash faoliyatiga integratsiyalash, milliy normativ-huquqiy va strategik rivojlanishni ta‘minlash orqali qayta sug‘urtalash institutlarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi va bozor samaradorligi uchun mustahkam asos yaratiladi. Shu tariqa, innovatsion iqtisodiyot sharoitida qayta sug‘urtalash instituti nafaqat risklarni boshqarishning samarali vositasi, balki sug‘urta bozorining izchil va strategik rivojlanishini ta‘minlovchi muhim iqtisodiy tayanch sifatida namoyon bo‘ladi.

Kelgusida qayta sug‘urtalash mexanizmlarini raqamli texnologiyalar, xalqaro sherikliklar va innovatsion mahsulotlar bilan chuqur integratsiyalash orqali milliy sug‘urta bozorining barqarorligini yanada oshirish, uning investitsion jozibadorligini kuchaytirish hamda global bozor standartlariga muvaffaqiyatli moslashuvini ta‘minlash mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dong J., Finlay T. A hybrid framework for reinsurance optimization using artificial intelligence // *Insurance: Mathematics and Economics*. – 2025. – Vol. 120. – P. 45–58.
2. Guo Y., Han L., Wang S. Dynamic reinsurance design under heterogeneous beliefs // *Journal of Risk and Insurance*. – 2025. – Vol. 92, No. 1. – P. 113–136.
3. Cremer F. Enhancing cyber insurance and reinsurance strategies in the digital economy // *Journal of Cybersecurity*. – 2024. – Vol. 10, No. 1. – P. 1–15.
4. Boonen T. J., Tan K. S., Zhuang S. Optimal reinsurance with multiple reinsurers // *European Actuarial Journal*. – 2021. – Vol. 11, No. 2. – P. 389–417.
5. Marangwanda G. Reinsurance as a strategic governance tool in innovative economies // *International Journal of Insurance Studies*. – 2025. – Vol. 7, No. 1. – P. 22–34.
6. Kamilov B. U. Problems and ways of development of reinsurance in Uzbekistan // *Central Asian Journal of Innovations in Management and Finance*. – 2024. – Vol. 3, No. 4. – P. 55–62.
7. Abdullayev A. A. O‘zbekistonda sug‘urta va qayta sug‘urtalash bozorini rivojlantirish istiqbollari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2023. – № 6. – B. 98–105.
8. Abirqulova S. N. The role of reinsurance in ensuring the financial stability of insurance companies // *Modern Economics and Finance*. – 2023. – Vol. 5, No. 2. – P. 41–48.
9. Nomozova Q. I. Forming a sustainable reinsurance model in the Republic of Uzbekistan: institutional and strategic approach // *Izlanuvchi*. – 2024. – No. 1. – P. 77–84.

10. Norov Z. Analysis of reinsurance development trends in the global market and in the practice of Uzbekistan // International Journal of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Vol. 6, No. 3. – P. 102–109.

11. <https://napp.uz> — O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining rasmiy veb sahifasi



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, dekabr, 12-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz

Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)

Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**